

BANKLARDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH.**Baxtiyor Anvarovich Guseynov***Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti*

Annotatsiya. Maqolada banklar tizimida buxgalteriya hisobini yuritish ishini to'g'ri tashkil etish yuzasidan fikrlar bayon etilgan. Buxgalteriya hisobi va nazoratning aniq olib borilishi bankning o'z vazifalarini to'g'ri bajarishini ta'minlaydi. Buning uchun buxgalterlardan muayyan bilimlar, buxgalteriya hisobi va hisobotining asosiy tamoyillari hamda uslublarini tushunish talab qilinadi. Ushbu maqolada tijorat banklarida buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish borasida mualliflik qarashlari keltirilgan.

Kalit so'zlar. Bank omonatlari, foizlar, buxgalteriya hisobvaraqlari, depozit, mijozlarni qabul qilish, imzo namunalari, to'lov topshiriqnomasi, chek daftarchasi.

Tahlil va natijalar. Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etish bo'yicha yo'riqnomada buxgalteriya hisobining tamoyillari, buxgalteriya apparatining tuzilishi, mijozlarga xizmat ko'rsatish hamda hujjatlar oborotini yo'lga qo'yish usullari to'g'risida ko'rsatmalar berilgan; bank operatsiyalari hisobini yuritish va ularni nazorat qilish qoidalari kiritilgan; xalqaro andozalar asosida buxgalteriya hisobotini tuzish hamda boshqa bank operatsiyalarini bajarish hajmlari va tartibi belgilangan, shuningdek, quyidagilarni ta'minlash maqsad qilib qo'yilgan:

*hisob-kitoblardagi mablag'lar aylanishini tezlashtirish, mijozlarga tez va aniq xizmat ko'rsatish, hisob-kitob, kassa, valyuta, kredit hamda boshqa bank operatsiyalarini to'g'ri bajarish;

*bajarilgan operatsiyalarni buxgalteriya hisobi va hisobotida o'z vaqtida hamda aniq aks ettirish;

*bankdan chiqayotgan hujjatlarni tegishli tarzda rasmiylashtirish va buning natijasida ulardan borgan joyda foydalanilishini osonlashtirish, shuningdek, boshqa banklarda ushbu hujjatlar bilan operatsiyalar bajarilayotganda hamda ular xizmat ko'rsatuvchi mijozlar hisobi yuritilayotganda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolarning, qonunga xilof xatti-harakatlarning oldini olish;

*bankdagi pul mablag'lari, moddiy boyliklar, shuningdek, qat'iy hisobda turadigan blankalar kamomadi, ortiqchaligi hamda qonunga xilof ravishda sarflanishining oldini olish;

*bank mansabdor shaxslarining belgilangan tartibga zid ravishda bank operatsiyalarini amalga oshirganliklarini, qimmatliklar va hujjatlarni yo'qotib qo'yish hamda shu kabi boshqa hollarda ularning javobgarligini hujjatlar bilan asoslash;

*operatsiyalarni amalga oshirish va rasmiylashtirishni ma'lumotlar to'plash orqali qonuniyligi hamda to'g'riligini tekshirish imkoniyatini bepilishi;

*bankda ish kuni tartibiga qat'iy rioya etish;

*zamonaviy kompyuter texnikasi vositalaridan keng ko'lamda foydalanish asosida bank operatsiyalarini amalga oshirish, ularning hisobini yuritish hamda hisobotlar tuzish uchun mehnat va mablag' sarfini qisqartirish. Yo'riqnomada va uning ilovalarida berilgan operatsiyalarni amalga oshirish, rasmiylashtirish, hisobini yuritish va nazorat qilish to'g'risidagi ko'rsatmalar barcha banklar uchun majburiydir. Bank doirasida hujjatlapning o'tish tartibi bosh buxgalter tomonidan mazkur bank ish xususiyatlarini hisobga olgan holda belgilanishi mumkin. Buxgalteriya ishi va buxgalteriya hisobini yuritishni tashkil etishning yo'riqnomada bayon etilgan tartibida kompyuter texnikasi qo'llash ko'zda tutilgan. Bosh daftardagi hisobvaraqlarni kodlash tizimi besh xonali sondan iborat bo'lishi lozim. Hisobvaraqlarni eslab qolish oson bo'lishi maqsadida aktiv hisobvaraqlarning kodlari toq, passiv hisobvaraqlariniki esa juft qilib belgilangan. Balans hisobvaraqlarida hisob ikki yoqlama yozuv usulida yuritiladi. Operatsiyalar mablag'larning harakatidan qat'iy nazar, amalga oshirilgan kuni buxgalteriya hisobida aks ettiriladi. Ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlarida hisob ikki yoqlama yozuv usulida yuritiladi. Bunda har bir yoki bir nechta ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlariga mos keluvchi kontr-hisobvaraqlar mavjud. Balans hisobotida va shu kabi boshqa hisobotlarda faqat asosiy ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari aks ettiriladi. Bu hisobotlarda kontr hisobraqamlar aks ettirilmaydi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Tijorat banklarining hisobvaraqlar rejasida keltirilgan balans hisobvaraqlari hamda ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaraqlari nomenklaturasi, hisobvaraqlarning tavsifi barcha banklar uchun yagona hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining ruxsatisiz o'zgartirilmaydi. Hisobvaraqlar rejasidagi hamma hisobvaraqlar aktiv yoki passivdir, shunga muvofiq aktiv va passiv hisobvaraqlar alohida baholanadi va yoyilgan tarzda qayd etiladi. Bankning buxgalteriya apparati hisob-kitob-pul hujjatlarini rasmiylashtirish, nazorat qilish hamda bank operatsiyalarini qayd etish bilan shug'ullanuvchi xodimlarni o'z ichiga oladi. Buxgalteriya apparatiga bankning bosh buxgalteri rahbarlik qiladi. Buxgalteriya apparati xodimlarining aniq vazifalarini bankning bosh buxgalteri belgilaydi. Yirik banklarda buxgalteriya hisobi bo'limlari tashkil etilishi mumkin. Tashkil etiladigan bo'limlar soni amalga oshirilayotgan operatsiyalar hajmiga va ularning avtomatlashtirilganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Bankning buxgalteriya xodimlari zimmasiga muayyan hisobvaraqlarni yuritish yoki alohida operatsiyalarni amalga oshirish ishlari yuklanadi. Bu holat hisobvaraqlarni buxgalteriya xodimlari o'rtasida taqsimlash va qayta taqsimlash hisobi yuritiladigan maxsus daftarda rasmiylashtiriladi. Mazkur daftarda ularga tilxat bilan berilgan burchak muhri izi ham aks ettiriladi. Xodim kasal bo'lib qolgan holda uning ishi

boshqa xodimga topshiriladi. Ushbu holda ishlarni taqsimlash daftariga tegishli yozuvlar kiritiladi. Hisobvaraqlar buxgalteriya xodimlari o'rtasida shunday taqsimlanishi kerakki, bunda bitta xo'jalik yurituvchi subyektning depozit va qisqa muddatli ssuda hisobvaraqlari bitta buxgalteriya xodimi tomonidan yuritilsin. Banklararo hisob-kitoblar va bankning ichki hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarning hisobini yuritish maxsus bo'limlarga topshirilishi yoki bu operatsiyalarni yaxshi tushunadigan hisob yurituvchi alohida xodimlar zimmasiga yuklatilishi lozim. Yordamchi va bosh kitoblarda operatsiyalarni qayd etish, dasturlikompyuter tizimida hisobotlar tuzish ishlariga rahbarlik qilish bank bosh buxgalteriga, u bo'lmagan vaqtda, bank rahbarining buyrug'iga ko'ra uning o'pinbosapiga topshiriladi. Buxgalteriya hisobi va hisobotini tashkil etish bank bosh buxgalteri tomonidan amalga oshiriladi. Har bir bankda xodimlarning lavozim vazifalari ishlab chiqilgan va tasdiqlangan bo'lishi zarur. Mazkur lavozim vazifalarining nusxalari xodimlarga ular ushbu nusxani olganliklari to'g'risidagi ro'yxatga imzo qo'ygandan keyingina beriladi. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida", "Bank va banklar faoliyati to'g'risida"gi qonunlari talablariga muvofiq hamda Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va tashkil etishning yagona metodologik asoslarini belgilab beradi. Tijorat banklari tomonidan buxgalteriya hisobi ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda yuridik shaxs sifatida ro'yxatdan o'tkazilgan vaqtdan boshlab qayta tashkil etilgunga yoki tugatilgunga qadar uzluksiz ravishda yuritiladi. Tijorat banklari bank operatsiyalarini amalga oshirishda va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishda Markaziy bankning me'yoriy hujjatlariga va amaldagi qonunchilikka qat'iy rioya qilishlari lozim. Mazkur hisobvaraqlar rejasi bank operatsiyalarining buxgalteriya hisobini aks ettirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Hisobvaraqlar rejasi bank operatsiyalarining hisobini yuritish, tahlil qilish, guruhlash va ularga doir hisobotlarni tuzishda qo'llanadigan Bosh kitob hisobvaraqlarini ro'yxatidan iboratdir. Xatolarni to'g'rilash va hisob siyosatidagi o'zgarishlar bo'yicha tuzatishlar kiritishda, hisobvaraqlarning ta'riflarida ko'zda tutilmagan bo'lsa ham hisobvaraqlarning debet va kreditlari bo'yicha tuzatish o'tkazmalari berishga ruxsat beriladi. Tijorat banklarining hisobvaraqlar rejasi buxgalteriya hisobining ko'p valyutali tizimiga asoslangan bo'lib, chet el valyutasidagi operatsiyalarning hisobi yuritilishi mumkin bo'lgan barcha hisobvaraqlarda xorijiy valyutadagi operatsiyalar hisobini aks ettirish imkonini beradi. Har bir valyuta turi bo'yicha sintetik hisobni yuritish uchun-alohida Bosh kitob, analitik hisobni yuritish uchun esa Yordamchi kitoblar ochiladi. Har bir valyuta bo'yicha Yordamchi kitoblardagi summalar yig'indisi Bosh kitoblarning tegishli balans hisobvaraqlaridagi summalar yig'indisiga mos kelishi kerak. Bank

tomonidan amalga oshiriladigan har bir operatsiya tegishli valyuta turi bo'yicha Bosh va Yordamchi kitoblarda ro'yxatga olinishi kerak. Hisobot sanasida Bosh kitoblarning xorijiy valyutalar bo'yicha jami summalari milliy valyutaga o'tkaziladi va hisobot davri davomida amalga oshirilgan barcha operatsiyalar bo'yicha bankning jamlanma balansi tuziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Модеров С.В. Изменение финансовой отчетности по МСФО// Международный бухгалтерский учет № 2. 2008 г. С. 10-16
2. Трофимова Л.Б., Международные стандарты финансовой отчетности. Издательство Юрайт-2020.-С.242
3. Соколов Я.В., Генералова Н.В., Бухгалтерская (финансовая) отчетность: учебное пособие. – 2 й выпуск. исправлено и дополнено. М.: “ИНФП-М”, 2015.-С. 365